



“Ikki karra Internet” aksiyasining shartlari

1. “Ikki karra Internet” aksiyasining shartlari (keyingi o‘rinlarda – Aksiya shartlari) ushbu Aksiyaning taqdim etish tartibini belgilaydi.
2. Aksiyaning o‘tkazish davri - 2020-yil 1-dekabr dan 2020-yil 31-dekabr gacha.
3. Aksiyaning amal qilish zonasi - O‘zbekiston Respublikasi hududi, “O‘zMobayl” filialining GSM (2G/3G/4G) tarmog‘i.
4. Aksiya doirasida quyidagi Internet-to‘plamlar ishga tushiriladi:

| № | Paket nomi | Kiritilgan trafik, MB | Narxi, so‘m | Amal qilish muddati, (kun) |
|---|---------------------------|-----------------------|---------------|----------------------------|
| 1 | Ikki karra Internet 500 | 1 000 | 10 000 | 30 |
| 2 | Ikki karra Internet 1 500 | 3 000 | 15 000 | 30 |
| 3 | Ikki karra Internet 3 000 | 6 000 | 24 000 | 30 |

5. Jismoniy shaxslar to‘plamlarni USSD-so‘rov, UZTELECOM ofislarida, Call-Centre orqali va SMS yordamida faollashtirishi/o‘chirtirishlari mumkin. Dilerlik xizmat ko‘rsatish nuqtalari orqali ushbu aksiyali Internet-to‘plamlarga ulanish yopiq.

6. Yuridik shaxslar xizmatlarni yoqish uchun UZTELECOM sotuv va xizmat ko‘rsatish ofislarida, va Call-Centre orqali buyurtma beradilar.

7. Har qanday aksiyali Internet-to‘plam faollashtirilganda (500 Mb dan 3 000 MB gacha), abonent to‘plam faollashtirilgan vaqtdan boshlab 30 kun muddatga bonus sifatida xuddi shu hajmdagi MB trafikka ega bo‘ladi.

8. Joriy bonusli to‘plamning muddatini uzaytirish navbatdagi (500 MB dan 3 000 MB gacha) xuddi shu turdagi aksiyali (bir xil hajm va turdagi to‘plam) Internet-to‘plamni xarid qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

9. Navbatdagi bir turdagi aksiyali Internet-to‘plam faollashtirilganda, megabaytlar qo‘shiladi. Qo‘shilgan bonusli megabaytlarning amal qilish muddati to‘plamni so‘nggi marta xarid qilingan kundan boshlab 30 kun davomida amal qiladi.

10. Bir turga oid bo‘lmagan aksiyali to‘plamlar (har xil hajmdagi va turdagi to‘plamlar) faollashtirilganda megabaytlar qo‘shilmaydi va to‘plamlarning amal qilish muddati har bir to‘plam uchun alohida belgilanadi. Trafikni sarf etish tartibi – faollashtirish tartibiga muvofiq.

11. Internet-to‘plamning amal qilish muddati tugaganda, navbatdagi xuddi shu turdagi Internet-to‘plam faollashtirilmagan taqdirda, megabaytlar qoldig‘i saqlanmaydi.

12. Kiritilgan trafik tugaganda yoki Internet-to‘plamning amal qilish muddati tugaganda, trafik joriy to‘plamga muvofiq tariflanadi.

13. Raqam yoki tarif reja o'zgartirilganda, Aksiya shartlari o'zgar olmaydi.

14. Internet-trafikning sarf etilish ustuvorligi:

- 1) Kunlik Internet-to'plamlar
- 2) Bonusli aksiyali Internet-to'plamlar
- 3) Tarif rejadagi bepul manbalar (tarif rejaga kiritilgan Internet limiti).
- 4) Xarid qilingan Internet-to'plamlar ularni faollashtirish tartibida.

15. Aksiya yo'lga qo'yilgani va uning shartlari haqida xabardor qilish tegishli ma'lumotlarni Internet tarmog'idagi rasmiy www.uztelecom.uz veb-saytida va boshqa kommunikatsiya vositalarida chop etish orqali amalga oshiriladi.

16. Kompaniya Aksiya Shartlariga o'zgartirish kiritish huquqiga ega va bunda tegishli ma'lumotlarni Internet tarmog'idagi rasmiy www.uztelecom.uz veb-saytida va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali, misol uchun SMS-xabarnomalar tarqatmasi va boshqalar orqali xabardor qiladi. Ishtirokchilar mustaqil ravishda yuqorida ko'rsatilgan sayt orqali tegishli o'zgartirishlarni tekshirishlari kerak.

17. Holatni tekshirish: SMS orqali 9999 qisqa raqamiga 1002 raqamini yuborish yoki *100*2#, *107# USSD kodini terish.

18. Aksiya quyidagi tarif rejalaridagi abonentlar uchun amal qiladi:

Jismoniy shaxslar uchun:

Aloqachi, Yoshlar, Oddiy 10, TA'LIM, MAKTAB, Street, OnLime, Flash, Ishbilarmon, Street Upgrade, Royal, Flash Upgrade, C1, C2, C3, C4, EZOZ, Salom, Salom Plus, Step, Traffic, Uzmobil 1200, Uzmobil 4000, Constructor, Uzmobil VIP, Komfort.

Yuridik shaxslar uchun:

Xizmat 1/2/3, Business Voice/25/35/50/70/Royal, Budget basic, Oddiy 10, Budget 400, Ta'lim, Budget 1500, Ishbilarmon, C1, C2, C3, C4, Salom, Salom Plus, Step, Traffic, Uzmobil 1200, Uzmobil 4000, Business 500, Business 2500, Constructor, Uzmobil VIP.

19. Jismoniy shaxslar uchun paketlarni faollashtirish:

| Nomi | USSD orqali | SMS orqali |
|---------------------------|-------------|-----------------------------|
| Ikki karra Internet 500 | *500*1*1*1# | 9999 raqamiga 500 yuborish |
| Ikki karra Internet 1 500 | *500*1*2*1# | 9999 raqamiga 1500 yuborish |
| Ikki karra Internet 3 000 | *500*1*3*1# | 9999 raqamiga 3000 yuborish |

20. Yuridik shaxslar uchun paketlarni faollashtirish:

| Nomi | USSD orqali | SMS orqali |
|---------------------------|-------------|-----------------------------|
| Ikki karra Internet 500 | *500*2*1*1# | 9999 raqamiga 500 yuborish |
| Ikki karra Internet 1 500 | *500*2*2*1# | 9999 raqamiga 1500 yuborish |
| Ikki karra Internet 3 000 | *500*2*3*1# | 9999 raqamiga 3000 yuborish |

21. Internet-to'plamlar faollashtirilgani bo'yicha xabar SMS orqali amalga oshiriladi

| | |
|--------------------------|---|
| Ikki karra Internet 500 | (RUS) Vy stali uchastnikom akcii 'Dvoynoy internet' i Vy poluchaete bonus +500MB na 30 dney. Proverka sostoyaniya: USSD zapros na *100*2#. (UZB) Siz 'Ikki karra Internet' aksiyasi ishtirokchisi bo'ldingiz va Sizga 30 kunga +500 MB bonus berildi. Tekshirish uchun *100*2# raqamiga USSD yuboring. |
| Ikki karra Internet 1500 | (RUS) Vy stali uchastnikom akcii 'Dvoynoy internet' i Vy poluchaete bonus +1500MB na 30 dney. Proverka sostoyaniya: USSD zapros na *100*2#. (UZB) Siz 'Ikki karra Internet' aksiyasi ishtirokchisi bo'ldingiz va Sizga 30 kunga +1500 MB bonus berildi. Tekshirish uchun *100*2# raqamiga USSD yuboring. |
| Ikki karra Internet 3000 | (RUS) Vy stali uchastnikom akcii 'Dvoynoy internet' i Vy poluchaete bonus +3000MB na 30 dney. Proverka sostoyaniya: USSD zapros na *100*2#. (UZB) Siz 'Ikki karra Internet' aksiyasi ishtirokchisi bo'ldingiz va Sizga 30 kunga +3000 MB bonus berildi. Tekshirish uchun *100*2# raqamiga USSD yuboring. |